
KAM TA'MINLANGAN FUQAROLARGA BEPUL KO'MIR MAHSULOTI YETKAZIB BERILMOQDA



Kam ta'minlangan fuqarolarga bepul ko'mir mahsuloti yetkazib berilmoqda

Ayni kunda tumanimizda kuz-qish mavsumini betalofat o'tkazish maqsadida kam ta'minlangan oilalar, ehtiyojmand fuqarolarga arzon narxda ko'mir mahsuloti yetkazib berilmoqda. Tuman "Mahalla" xayriya jamoat fondi raisi Rasuljon Mirsaidovning ma'lumotiga ko'ra, bugungi kungacha Hushyor, Sebzor, Qaqir, Qal'acha, G'aznov, So'x, Hazrati Ali, Mulgon, Chashma va Chumoqcha mahalla fuqarolar yig'inlariga 347 tonna kumir arzon narxda yetkazib berildi.

Jumladan, 3-sektor hududidagi fuqarolarga 120 tonnadan ortiqroq, Mulgon mahalla fuqarolar yig'iniga 40 tonna ko'mir berildi. Aytish lozimki, ko'mir mahsuloti tabiiy gaz muammo bo'lgan va yetib bormagan hududlarga birinchi navbatda yetkazilmoqda.

Bundan tashqari tuman ko'mir omboridan kam ta'minlangan, ehtiyojmand va nogironligi bor fuqarolarimizga 11,8 tonnadan ortiq bepul ko'mir yetkazib berildi. Bugungi kungacha 59 nafar ehtiyojmand fuqarolarga bepul ko'mir tarqatib berildi.

Hushyor mahallasining "Adiri bolo" ko'chasida yashovchi fuqarolarga So'x ko'mir omboridan arzon narxda 23 180 kilogramm ko'mir mahsuloti tarqatib berildi.

"Tagi sho'xcha" ko'chasida yashovchi Xoliniso Turayeva murojaati bo'yicha tadbirkor Sh. Egamov tomondan homiylik asosida amaliy ko'mak ko'rsatildi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2022-12-17 16:30:23